

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

V.O.Gofurova

Environmental and socio-cultural impact of tourism	6
--	---

FALSAFA

M.A.Mamatov, Sh.M.Mallayeva G.R.Mannobova

Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosati amalda (Farg'ona viloyati misolida)	10
---	----

A.A.Qambarov, M.A.Abdusalimova

Qo'qon adabiy muhitini rivojlantirishda ayollarning ro'li	14
---	----

A.A.Abduvaxidov

Ma'rifatparvarlik fenomenining asosiy g'oyasi, vujudga kelishi va rivojlanishi	18
--	----

I.A.Asatulloev

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida "sog'lom jamiyat"ni shakllantirish vazifalari va istiqbollari	23
---	----

S.S.Sodiqov

Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlar faol ijtimoiy pozitsiyasining ahamiyati	27
---	----

A.A.Abdusalomov

Jadidchilikda tarix va ta'lim masalalari.....	33
---	----

M.R.Axmadova

Ma'naviy targ'ibot ishlarini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o'rni	36
---	----

Sh.A.Dolimov

Yangi O'zbekistonda maktab ta'limidagi modernizatsiya jarayonlarining sinkretlashuv xususiyatlari va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlari.....	40
---	----

G.M.Ravshanova

Axborotlashgan jamiyat rivojining innovatsion-ma'rifiy asoslari.....	43
--	----

D.S.Raxmatova

Xoja Orif Revgariy hayoti va ma'naviy merosi	48
--	----

N.T.Xolikov

Globallashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishining falsafiy-konseptual tahlili	54
--	----

S.S.Mamatkadirov

Yoshlar mediamadaniyatini rivojlantirishda davlat axborot siyosatining ustuvor vazifalari va yo'nalishlari	58
--	----

Sh.E.Daniyarov

Jadidlar harakati va madaniy uyg'onishning falsafiy asoslari.....	62
---	----

U.B.Maxtumova

Ommaviy madaniyat va yoshlar: madaniy qadriyatlarga tahdid yoki imkoniyat.....	67
--	----

O'.M.Xamroqulov

Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning o'rni	70
---	----

Y.Y.Turobov

XVIII-XIX asr mutafakkirlari merosida axloq tamoyillari	75
---	----

Sh.M.Xaydarova

Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlarni yakdil maqsadga yo'naltirishning istiqbolli vazifalari	82
---	----

D.M.Xusanov

Postmodern jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi dialektikasi	86
--	----

F.M.Usarov

Axborotlashgan jamiyat sharoitida jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirishning strategik asoslari.....	90
---	----

M.M.Mamasaliyev

O'zbekistonda o'zgalarga toqatsizlikni kuchayib borishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolar tahlili.....	93
---	----



UO'K: 1(091)(075.8)

MA'RIFATPARVARLIK FENOMENINING ASOSIY G'OYASI, VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI**ОСНОВНАЯ ИДЕЯ, ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ ФЕНОМЕНА ПРОСВЕЩЕНИЯ****THE MAIN IDEA, THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF THE PHENOMENON OF ENLIGHTENMENT****Abduvaxidov Abdullaziz Abdusattor o'g'li** 

Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi kichik ilmiy xodimi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi (PhD)

Annotatsiya

Ma'rifatparvarlik — bu nafaqat bilim va madaniyatni tarqatish, balki insonlarning ongini, fikrini va xulqini o'zgartirishga qaratilgan jarayon. Bu jarayon, ta'lim tizimi va madaniy faoliyat orqali jamiyatning intellektual rivojlanishini ko'zda tutadi. Shuningdek, ma'rifat — davlatda yoki jamiyatda tashkil etilgan tarbiyaviy va ma'rifiy tizimni ifodalaydi. Bu tizim o'zgaruvchan tarixiy sharoitlarda, iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillar bilan bog'liq ravishda shakllanadi. Maqolada ma'rifatparvarlikning asosiy g'oyasi, vujudga kelishi, rivojlanishi, xususan, ma'rifatparvarlar harakati borasida so'z boradi. Kantning falsafiy nuqtai nazaridan, ma'rifat faqat tashqi erkinlikda emas, balki ichki erkinlikda ham ifodalanadi. Bu erkinlik, odamning o'z aqlidan mustaqil ravishda foydalanishi va o'z fikrini erkin ifodalashi huquqini anglatadi. Shuning uchun, Kantning ma'rifatga bo'lgan qarashi, birinchi navbatda, insonning o'zini anglash va o'z aqlini mustaqil ravishda ishlatish huquqiga ega bo'lishidir.

G'arb mutafakkirlari "voyaga yetmaganlik"ni insonning o'z aqlidan erkin foydalanishdan qochish yoki qo'rqish holati sifatida ta'rifiylaydi. Bu holat, odamning faqat boshqalar tomonidan ko'rsatilgan yo'l-yo'riqqa, maslahatga yoki qo'llab-quvvatlashga tayanishida namoyon bo'ladi. Uning fikricha, bu holat odamning o'zining ichki kuchi va aqli bilan to'liq ishlashga bo'lgan jasoratsizlikdan kelib chiqadi. Bu, ayniqsa, jamiyatda, hukumatda yoki diniy idoralarda ko'proq muvofiqlashtirilgan nazorat va o'rgatishlar orqali mustahkamlanadi. Shunday qilib, ma'rifat — bu nafaqat tashqi ijtimoiy o'zgarishlar, balki ichki, insonning o'zini anglash va o'z aqlini erkin ishlatishga bo'lgan ichki ehtiyojni ham o'z ichiga oladi.

Аннотация

Просвещение — это не только распространение знаний и культуры, но и процесс, направленный на изменение сознания, мышления и поведения людей. Этот процесс предполагает интеллектуальное развитие общества через систему образования и культурную деятельность. Также просвещение обозначает систему воспитания и просвещения, организованную в государстве или обществе. Эта система формируется в зависимости от исторических условий, экономических, политических и культурных факторов. В статье рассматривается основная идея просвещения, его возникновение и развитие, а также движение просвещённых людей. С философской точки зрения Канта, просвещения выражается не только во внешней свободе, но и во внутренней. Эта свобода подразумевает право человека использовать свой разум независимо и свободно выражать свои мысли. Поэтому взгляд Канта на просвещение заключается в том, что прежде всего человек имеет право познавать себя и использовать свой разум самостоятельно.

Западные мыслители описывают «несовершеннолетие» как состояние, при котором человек избегает или боится свободно использовать свой разум. Это проявляется в том, что человек полагается исключительно на указания, советы или поддержку других. С их точки зрения, такое состояние обусловлено отсутствием мужества полностью использовать свои внутренние силы и разум. Это, в частности, усиливается в обществе, правительстве или религиозных институтах через более организованный контроль и наставничество. Таким образом, просвещение — это не только внешние социальные изменения, но и внутреннее стремление человека к самопознанию и свободному использованию своего разума.

Abstract

Enlightenment is not only the dissemination of knowledge and culture but also a process aimed at transforming the consciousness, reasoning, and behavior of individuals. This process seeks the intellectual development of society through educational systems and cultural activities. Furthermore, enlightenment refers to the educational and intellectual frameworks established within a state or society. These frameworks evolve according to changing historical conditions and are closely linked to economic, political, and cultural factors. This article discusses the central ideas, emergence, and development of the concept of enlightenment, particularly focusing on the movement of enlightened thinkers. From the perspective of Immanuel Kant's philosophy, enlightenment is expressed not only in external freedom but also in internal freedom. Internal freedom, in this context, refers to the individual's right to use their reason autonomously and to express their thoughts freely. Consequently, Kant's conception of enlightenment emphasizes, above all, the right of the individual to self-awareness and the independent application of their intellectual capacities.

FALSAFA

Western philosophers characterize "immaturity" as a condition in which an individual avoids or fears the independent use of their own reason. This condition manifests when a person relies solely on the guidance, advice, or support of others. According to these thinkers, this state arises from a lack of courage to fully engage with one's internal strength and intellect. Such immaturity is often perpetuated through the external control and authoritative teachings imposed by social, governmental, or religious institutions. Therefore, enlightenment encompasses not only external social transformations but also an intrinsic need for self-awareness and the autonomous use of one's intellect.

Kalit so'zlar: Ma'rifatparvarlik, siklopediya, xudo, Jon Lokk, K.A.Gelvetsiy, D.Didro, J.J.Russo, I.G.Pestalozzi, "ma'rifatli absolyutizm", tafakkur, ta'lim, maktab.

Ключевые слова: Просвещённость, циклопедия, бог, Жон Локк, К.А.Гельветций, Д.Дидро, Ж.Ж.Руссо, И.Г.Песталоззи, "просвещённый абсолютизм", размышление, образование, школа.

Key words: Enlightenment, cyclopedia, god, John Locke, C.A. Helvetius, D. Didro, J.J. Rousso, I.G.Pestalozzi, "enlightened absolutism", reflection, education, school.

KIRISH

Ma'rifatparvarlik — madaniyat, jamiyat va falsafiy tafakkur tarixidagi muhim bir davrni ifodalovchi atama. Bu davrning boshlanishi odatda XVII asrning ikkinchi yarmiga, tugash nuqtasi esa XVIII asr Fransuz burjua inqilobi bilan bog'lanadi. Ayrim mamlakatlarda XIX asr boshlariga qadar davom etganligi ta'kidlanadi. Tarixshunoslikda XIX asr va XX asrning asosiy davrida ma'rifatparvarlik g'oyaviy jihatdan fransuz inqilobiga tayyorgarlik ko'rish sifatida qaralgan. Ammo, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida bu yondashuvning qisman jihatlari anglanib, uni faqat Fransuz inqilobi bilan bog'lashdan ko'ra, kengroq va chuqurroq madaniy fenomen sifatida ko'rishga o'tildi.

Falsafiy nuqtai nazardan, ma'rifatparvarlik asosan aql va ilmga asoslangan yangi dunyoqarashlarning shakllanishini anglatadi. Bu davrda odamlarning bilim olish, erkin fikr yuritish va ijtimoiy adolat kabi g'oyalariga asoslangan falsafiy va madaniy inqiloblar yuz berdi. Falsafiy jihatdan, ma'rifatparvarlik o'zini ifodalaydigan tafakkur uslubining rivojlanishini anglatadi, bu esa bilimning kengayishini va diniy, siyosiy tizimlarga nisbatan tanqidiy munosabatni rivojlantiradi. Ushbu davrda ilgari rad etilgan, ammo keyinchalik kiritilgan g'oyalar, erkinlik va inson huquqlari kabi tushunchalar o'zining falsafiy mustahkamligini topdi.

Shu bilan birga, ma'rifatparvarlik endi faqat g'oyalar to'plami sifatida emas, balki kundalik hayotda, ijtimoiy munosabatlarda, madaniyat va ilm-fan sohalarida sodir bo'lgan fundamental o'zgarishlar sifatida ham talqin qilinadi. Buning orqali, ma'rifatparvarlik o'zining tarixiy o'rni va madaniy o'zgarishlarga ta'sirini yanada kengroq tushunish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda g'arb olimlarining boy ilmiy-adabiy merosini o'rganish har qachongidan keng tus olmoqda. Yevropa davlatlarida XVII–XVIII asrlarda, ayniqsa Fransiya, Angliya, Germaniya, va boshqa ko'plab Yevropa mamlakatlarida rivojlangan. Fransiya ma'rifatparvarligi haqida "XVIII asrda Fransiya jamoat fikrining rivojlanishi" [1] asari orqali bilib olishimiz mumkin. "Fransuz adabiyoti tarixi" [2], asari ham ma'rifatparvarlik harakatining rivoji haqida so'zlaydi. Germaniyada ham ushbu harakat keng rivojlandi. Immanuel Kantning "Falsafiy dinshunoslik", "Falsafiy din haqidagi ta'limot Bo'yicha darslar", "Germaniya ideologiyasi" kabi asarlarda ma'rifatparvarlik harakati va rivoji haqida bayon etilgan.

Bugun ushbu mavzuning dolzarbligini hisobga olgan holda Ma'rifatparvarlarning hayoti va faoliyati haqida tadqiq etilmoqda.

Xorijlik olimlardan Ogurov A.P., Demchenko A.I., Elistratova A.A., Alekseev M.P., Neustroyev V.P., Kondrad N.I., Krasnobaev B.I., Plexanov G., Hampson N., Krauss W., Wolff W., Mornet D., Babayev A.A. va bir qancha olimlar asarlar yozishgan va tadqiqot ishlari olib borishgan.

Mazkur maqolada ma'rifatparvarlar hayoti, adabiy merosi tavsifi undagi mazmun-mohiyati borasida qisqa shaklda ma'lumot berib o'tilgan. Maqolada o'rganilayotgan muammo ya'ni, ma'rifatparvarlik va maoriflar hayoti va ilmiy-faoliyatini adabiy manbashunoslik nuqtai nazaridan yoritib berishda ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, germenevtika va qiyosiy tahlil kabi metodlaridan keng foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'rifat ideologiyasi renessans madaniyati va XVII asrda yuzaga kelgan ilmiy inqilob ta'sirida shakllandi. Ilmiy inqilob F.Bekon, R.Dekart, G.V.Leybnits, I.Nyuton, B.Spinoza kabi olimlarning ilmiy faoliyati orqali fan va din o'rtasidagi bog'liqlikni yengib o'tishning muhim bosqichi bo'ldi. Bu davrda aniq fanlar (fizika, matematika, mexanika, astronomiya)ning rivojlanishi bilan aql va ilmga bo'lgan

ishonch ortdi, shu bilan birga ratsionalizm g'oyalari keng tarqaldi. Ko'plab ma'rifatchilar, xususan Jean Le Rond d'Alembert, Iogann Gyote, Anton Laurent de Lavosier, Benjamin Franklin kabi shaxslar tabiiy fanlar bilan shug'ullanishgan.

Empirik ma'lumotlar yig'ilishi natijasida, Karlos Linneyning "Tabiat tizimi" kabi alohida fan sohalarini umumlashtiruvchi asarlar va "Siklopediya" (Edmund Chemberz), "Ensiklopediya" (Deni Didro va J.D'Alembert) [3; 211-b.]. kabi universal ma'lumotnoma asarlari paydo bo'ldi. Bu asarlar ilmfanning rivojlanishini yanada jadallashtirdi.

Ma'rifatparvarlarning asosiy g'oyasi ijtimoiy hayotni ratsional asosda o'zgartirish, barcha illatlar va xurofotlarga qarshi kurashish edi. Dinning ilmiy bilimga to'sqinlik qilishi sababli, diniy tasirni jamiyatdagi rolini cheklash kerakligi aytilgan. Shu bilan birga, ko'plab ma'rifatchilar dini to'liq rad etmagan, balki uni jamiyatda faqat axloqiy yo'nalishlarda cheklashni taklif qilishgan.

Ma'rifatparvarlar, shuningdek, "aql dini"ni ilgari surganlar, unda Xudo olamning shaxsiy bo'lmagan sababidir. Olamda o'zining o'zgarimas tabiat qonunlarini yaratgan va bu qonunlarga aralashmaydi. Ularning fikricha, inson tabiatan axloqiy bo'lib, barcha yomonliklar esa noto'g'ri tushunchalar va eski urf-odatlar natijasidir. Shuning uchun, ma'rifatparvarlar jamiyatni rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida ta'lim va tarbiyaga katta e'tibor berganlar. Bu g'oyalar Jon Lokk, K.A.Gelvetsiy, D.Didro, J.J.Russo, I.G.Pestalozzi kabi mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan [4; 190-b.]. Ular tarbiyani bolalarning tabiiy qobiliyatlari va moyilliklariga mos bo'lishi kerakligini ta'kidlaganlar.

Ma'rifatparvarlar o'z davrining cheklanmagan monarxiya davlat tizimini tabaqaviy imtiyozlar tizimiga qarshi ham yo'naltirgan edi. Bu davrda zamonaviy, dunyoviy davlat tushunchalari shakllandi. Ular insonlar o'rtasidagi o'zaro majburiyatlar asosida tashkil etilgan Tabiiy huquq nazariyasi, insonlarning tug'ma tengligi haqidagi tushunchaga asoslanib, demokratik erkinliklar va huquqlarni talab qilishni ideologik jihatdan asoslab berdi. Ushbu davrda zamonaviy siyosiy tizimning muhim jihatlari shakllandi: fuqarolik huquqlari va erkinliklari (shu jumladan, vijdon erkinligi), hokimiyatning ajratilishi prinsipi (J.Lokk, Sh.Monteyskiy) va boshqalar. Ko'plab ma'rifatparvarlar ma'rifatli monarxni kerakli islohotlarni amalga oshiradigan va provinsiyalar o'rtasidagi ajralishni bartaraf etib, millatning siyosiy birligini ta'minlaydigan shaxs sifatida ko'rganlar. Bu esa, "ma'rifatli absolyutizm" deb ataladigan tushunchaning shakllanishiga olib keldi. Boshqa bir qism ma'rifatparvarlar esa xalq suvereniteti va demokratik respublika g'oyalarini himoya qilgan (Russo) [5; 98-b.].

Ma'rifatparvarlik davrida yuzaga kelgan yangi g'oyalar jamiyatda tez tarqala boshladi va insonlar hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi, kundalik hayotda muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Avvalo, bu o'qish jarayonidagi o'zgarishlar bilan bog'liq edi. XVIII asr davomida aholining savodxonlik darajasi sezilarli darajada oshdi (masalan, Fransiya erkaklar o'rtasida 47%, ayollar o'rtasida esa 27% savodxonlikka erishilgan), bosma nashrlar miqdori keskin o'sdi, ularning katta qismini dunyoviy va badiiy adabiyotlar tashkil etdi. Kitoblar formati ham o'zgardi. Ular faqat stol atrofida emas, balki sayr qilib yurgan paytda, yo'lda va boshqa holatlarda ham o'qilishi mumkin edi. O'qishga yangi ijtimoiy guruhlar, jumladan, hunarmandlar, xizmatkorlar, dehqonlar jalb qilindi. XVIII asrning ikkinchi yarmida ommaviy o'quv xonalarini barpo etish keng tarqaldi. Ushbu joylarda gazetalar va jurnallarni olish imkoniyati yaratildi. Ularga obuna bo'lish narxi yuqori bo'lsa-da, ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyati paydo bo'ldi. Shuningdek, kitoblarni uyga olib chiqish imkoniyati ham yaratildi.

Kitob bosish va davriy nashrlarning rivojlanishi g'oyalarni keng tarqatishning asosiy vositasiga aylandi. Bu jarayon, o'z navbatida, yangi ijtimoiy haqiqatni — jamoatchilik fikrini shakllantirdi. Jamoatchilik fikri falsafiy nuqtai nazardan, hukumat nazoratidan mustaqil, shaxslar va guruhlar o'rtasida o'zaro munosabatlar orqali yuzaga keladigan, jamiyatning umumiy qadriyatlari va qarashlari majmuasidir. Bu fikrlar siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan hukumatga ta'sir o'tkazish bilan ajralib turadi. Yangi g'oyalar munozara va bahs-munozaralar orqali shakllana boshladi va ular jamoatchilikning keng qatlamlari tomonidan qabul qilindi. Shu tariqa, g'oyalar ijtimoiy va ma'naviy hayotning turli sohalarida erkin fikr almashish imkoniyatlarini yaratdi. Bunda akademiyalar, o'quv klublari, intellektual to'garaklar, adabiy maydonlar, ijtimoiy obyekt va boshqa intellektual maydonlar muhim rol o'ynadi [6; 147-b.].

Ta'lim tizimining rivojlanishi intellektual o'zgarishlarning bir qismi sifatida namoyon bo'ldi. O'quv yurtlari va ta'lim tizimi, aqliy rivojlanishni, bilim va tafakkurni mustahkamlashni maqsad qilgan. XVIII asrning ikkinchi yarmida davlat tomonidan xalq maktablari tizimi shakllana boshladi.

FALSAFA

Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va milliy an'analarning farqlari turli mamlakatlarda ma'rifatparvarlikning xususiyatlarini shakllantirdi. Bu davr falsafasi, har bir millat va jamiyatning o'ziga xos tarixiy va madaniy omillariga mos ravishda, bilim, tafakkur va erkin fikrni rivojlantirishga intildi. Shunday qilib, har bir mamlakatda ma'rifatparvarlik o'zining maxsus shaklini oldi. Biroq uning asosiy qadriyatlari — aqliy erkinlik, ilmiy rivojlanish va ijtimoiy o'zgarishlar edi.

Angliya va Shotlandiyadagi ma'rifatparvarlikga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'zgarishlar hamda XVII asrdagi inqiloblar edi. Parlamentarizmning erta rivojlanishi, uning huquqiy usullari bilan siyosiy kurash va ijtimoiy qarama-qarshiliklarni hal etish, shuningdek, keng qatlamdagi aholi orasida nisbatan yuqori madaniy va siyosiy ma'rifatning mavjudligi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Angliya ma'rifatparvarligining rivojiga din va cherkov bilan bo'lgan munosabatlar ham katta ta'sir ko'rsatdi. Angliyadagi ma'rifat arboblari xristianlikka sodiq qolishgan, chunki Angliyaning anglikan cherkovi ma'rifatni rad etmagan, aksincha, uning diniy tolerantlikga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlagan. Bu esa an'anaviy diniy qadriyatlar bilan yangiliklarni uyg'unlashtirishga imkon yaratdi. Angliya ma'rifatparvarligining xususiyatlaridan biri shundaki, uning asosiy namoyandalari cherkovni va xristianlikni ko'p holatlarda tanqid qilmagan. Yalpi istisno sifatida, faqat J. Toland cherkovga qarshi aniq tanqidlar bildirgan. Bu holat, ma'rifatning ijtimoiy va diniy tuzilmalar bilan uyg'un bo'lib rivojlanishiga imkon yaratdi.

Italiyadagi ma'rifatparvarlik (Tafakkur davri)ning o'ziga xosligi nazariy fikrlashdan ko'ra, aniq va amaliy masalalarga, ayniqsa iqtisodiyot va huquq sohalariga yo'naltirilgan edi. Italiyaning ma'rifatparvarlari iqtisodiy tizimning samaradorligi, xo'jalik faoliyatining asosiy qonuniyatlari va davlatning moliyaviy siyosatini o'rganish bilan shug'ullanishgan. Neapolda dunyoda birinchi marta siyosiy iqtisodiyot kafedrasini tashkil etilib, uni A.Jenovezi boshqargan. Yevropadagi va Shimoliy Amerikadagi tafakkur oqimlariga katta ta'sir ko'rsatgan asar, Ch.Bekkarianing "Jinoyatlar va jazo haqida" nomli kitobi bo'lib, unda o'lim jazosi rad etilib, jazo va jinoyat o'rtasidagi mutanosiblikning ahamiyati, adolat va inson huquqlariga bo'lgan hurmat ta'kidlangan [7; 86-b.].

Germaniyadagi ma'rifatparvarlik o'ziga xos ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sharoitlarda rivojlangan bo'lib, uning xususiyatlarini siyosiy bo'linish, knyazlik mutlaqligi, tazyiqlarga asoslangan hokimiyat va iqtisodiy zaiflik shakllantirgan. Germaniyadagi bu davrda, ko'pincha hukmdorlar tomonidan yangi g'oyalar muhokama qilinishiga ruxsat berilgan, bu esa ijtimoiy islohotlar va intellektual yangilanishlarga olib kelgan. Masalan, Fridrix II ning Prussiya va Mariya Teresiya hamda Iosif II ning Avstriya davridagi siyosiy va madaniy tashabbuslari buni aniq ko'rsatadi.

Germaniya ma'rifatparvarligi o'zining aqliy va falsafiy yo'nalishlari bilan ajralib turadi. U ko'proq madaniyat, ilm-fan va falsafani o'rganishga qaratilgan bo'lib, amaliy siyosat va iqtisodiy masalalarga kamroq e'tibor berilgan. Buning sababi, nemis ma'rifatparvarlik vakillari ko'pincha diniy va falsafiy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lishgan va ular ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda, ayniqsa, davlat va cherkov bilan hamkorlikda faoliyat yuritganlar. Bu hamkorlik ko'pincha davlat xizmatida yuqori ijtimoiy mavqega ega bo'lgan, zodagonlar, davlat xizmatchilari va davlat hokimiyatiga bog'liq bo'lgan boshqa guruhlarining manfaatlariga asoslangan.

Germaniya ma'rifatparvarlik vakillari o'z falsafiy qarashlarini yanada chuqurlashtirib, jamiyatni ijtimoiy adolat va tabiiy huquqlar asosida bayon qilishga harakat qilishgan. Tabiiy huquq va ijtimoiy shartnoma nazariyalari, ular tomonidan qo'llab-quvvatlangan mutlaqlikning falsafiy asosi sifatida qaralgan. Masalan o'sha davrning asosiy fikr yurtuvchilari monarxni tabiiy huquqning yagona talqinchisi va amalga oshiruvchisi sifatida tasvirlagan. Ularning siyosiy falsafasida monarx o'zining subyektiv hokimiyatini jamiyat va davlat manfaatlariga xizmat qilishda ko'rgan. Bu nazariyalar mutlaqlikni jamiyatdagi tartibni saqlash va adolatni ta'minlash uchun zarur deb hisoblagan. Germaniyadagi ma'rifatparvarlik o'zining ijtimoiy va siyosiy strukturalariga kirgan o'zgarishlarni asoslab bergan, falsafiy va siyosiy izlanishlar orqali davlat va jamiyatni yangi tamoyillarga asoslashga intilgan. Bu jarayon bir tomondan, zamonaviy siyosiy va falsafiy tafakkurga, boshqa tomondan esa, ijtimoiy islohotlarga olib kelgan.

Nemis ma'rifatparvarligi, ayniqsa Kantning falsafasi orqali, yangicha tafakkur yo'nalishida so'nggi bosqichga ko'tarilgan, chunki aynan Kantning "Ma'rifat nima?" asari (1784) orqali ma'rifatparvarlikning o'z mohiyati haqida fikr yuritila boshlandi. Unga ko'ra, ma'rifat – bu insonni bilim olish, fikrlash va o'zgarishlarga ochiq bo'lish orqali uning ichki erkinligini topishga yo'naltirilgan jarayon. Kantning bu qarashlari, insonning tabiiy intellekti va aqliy erkinligi orqali jamiyatdagi barcha tazyiqlarga, xususan, ma'rifatsizlik va diniy dogmalarga qarshi kurashni ta'kidlaydi. Bu yerda, u

ma'rifatni faqat individual rivojlanish yoki intellektual erkinlik bilan cheklamagan, balki bu jarayon jamiyatni yanada adolatli va erkin qilishga qaratilgan degan fikrni ilgari suradi.

XULOSA

Ma'rifatparvarlikning eng yirik vakillari dastlab Yevropada vujudga kelishdi va ma'rifatparvarlik harakatini olib borishdi. Davlat tuzumi, odamlar o'rtasidagi munosabatlar haqida ishlashar ekan, bu faylasuflar "insonning tabiiy holati" haqida qiziqarli qarashlar ishlab chiqdilar, ya'ni davlat tashkiloti shakllanishidan oldingi holat haqida. Ma'rifatparvarlar nuqtai nazaridan, "tabiiy holat" inson tabiatida mavjud bo'lgan mojaro va kurashga bo'lgan moyillikni yaxshi namoyish etadi. Shu sababli "tabiiy holat", uning "hamma narsaga qarshi" urushi bilan, fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini aniq tartibga solish orqali cheklanishi kerak edi.

Faylasuf Jon Lokk, "tabiiy holat"ni tinchlik va mehr-oqibat bilan tavsiflagan. Ingliz ma'rifatparvarlik vakillari "davlatning paydo bo'lishi haqidagi nazariya"ning asoschilaridir, bu nazariya hozirgi kunga qadar ta'sirchan bo'lib qolmoqda. Uning mohiyati ijtimoiy shartnomada, ya'ni fuqarolar o'rtasida xavfsizlik va himoya olish maqsadida tuzilgan ittifoqda. Shu bilan birga, fuqarolar himoya va xavfsizlik evaziga ma'lum huquqlar ro'yxatini amalga oshirilishini talab qilishlari kerakligi ta'kidlanadi. Ma'rifatparvarlik harakati bujudga kelgan va rivojlangan joyda ulkan o'zgarishlar va islohotlar bo'lgan. Bularning barchasi eng avvalo inson uchun ekanligini ta'kidlashgan. Qilingan har bir islohot o'z so'zini aytdi va dunyo yangi bosqichga chiqdi. Ushbu harakatlar kelgusida insoniyat taraqqiyotiga ulkan yutuqlar olib kelgan. Inson ongi bu davrda jadal rivojlandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Развитие общественной мысли во Франции в XVIII в. – Москва. 1958. – 436 с
2. История французской литературы. Т. 1. – Москва. 1946. – 139 с.
3. Материалы международной научной конференции к 300-летию со дня рождения Дени Дидро, Москва, 5-6 декабря 2013 г. – С.-Пб.: Алетейя, 2014. – 492 с.
4. Длугач Т.Б. Дени Дидро. – Москва: Мысль, 1986. – 318 с.
5. Жан-Жак Руссо. Сочинения. – Москва: Янтарный сказ, 2001. – 512 с.
6. Хоркхаймер М., Адорно Т. В. Диалектика просвещения. Философские фрагменты. – Москва. 1997. – 519 с.
7. Кузнецов Б.Г. Итальянский гуманизм эпохи Возрождения. – Саратов: Руть, 1984. – 382 с